


Farg'ona viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar-avgust)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021-yilning yanvar-avgust oylarida viloyat korxonalari tomonidan 15 640,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 104,5 %ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (93,1 %)ni tashkil etdi.



B– Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat **D**-Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI* %da




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi oshganligining asosiy omili, ishlab chiqaradigan sanoatda 4,5 %ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash, havoni konditsiyalash va suv bilan ta'minlash 10,5 %ga o'sishga erishildi.

Shuningdek, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati bo'lib, - 31,5%ga, konalizatsiya tizimi va chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlarda 29,1 %ga pasayishi kuzatildi.


*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami ishlab chiqarish hajmi va FHI, %da




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 82,4 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 %ini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat



2021-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat, korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining 14563,1 mlrd. so'mini yoki jami sanoat mahsulotlarining 93,1 %ini tashkil etdi, hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,5 %ga o'sish kuzatildi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,7 %ni (2020-yilning yanvar-avgust oylarida - 0,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali -12,2 % (14,6 %), o'rta-quyi texnologiyali - 27,0 % (28,8 %) va quyi texnologiyali - 53,2 % (48,7 %)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 4,9 % (2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 82,6 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 0,6 % (2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 60,5 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 33,6 % (2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 133,0 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,2 % (2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 98,8 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi –11,6 % (2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 90,4 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmlari

2021-yilning yanvar-avgust oylari davomida 2020-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan dizel yoqilg'isi 10,7 %ga, neft bitum 143,8%, klinkersement 23,3 %, Paxta linti 82,7% ortgan.


**Dizel yoqilg'isi,
ming tonna**



**Avtomobil benzini,
ming tonna**



**Neft bitumi,
ming tonna**



**O'simlik yog'i
(tozalangan), ming tonna**



**Paxta chigiti,
ming tonna**



**Yumshoq bug'doy
va spelta uni, ming tonna**



**Karbamid,
ming tonna azot**




**Aroq,
ming litr 100% spirt**




**Uzum vinosi,
ming litr**




**Portlandsement,
ming tonna**



**Klinkersement,
ming tonna**



**Paxta linti,
ming tonna**



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar
tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**


Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-avgust	2021- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Avtomobil benzini, ming t	134,4	156,8	22,4
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	189,6	172,0	-17,6
Paxta tolasi, ming t.	17,6	30,1	12,5
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	20,8	12,4	-8,3

**Ishlab chiqaradigan sanoatda, yirik sanoat korxonalari
tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-avgust	2021- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Portlandsement, ming t.	870,2	655,4	-214,8
Klinkersement, ming t.	507,4	625,4	118,0
Natriy nitrat ming. t	3,3	3,5	0,2
Dizel yoqilg'isi, ming t.	227,0	251,4	24,4

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

2021- yilning yanvar-avgust oylarida




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 895,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,7 %ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-avgust oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 2,9 %ga o'sishi kuzatildi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-avgust	2021- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	179,2	253,6	74,4
Iссиqlik energiyasi, ming gkal	1273,0	1105,2	-167,8

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 99,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 %ini) tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar- avgust	2021- yil yanvar- avgust	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	12,3	10,4	-1,7
Xavsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	11,5	11,9	-0,4
To'qimachilik chiqindilari, t.	9228,3	9235,4	7,1

O'tgan yilning mos davriga nisbatan to'qimachilik chiqindilari esa 0,1% ga oshganligi, kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5 896,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va uning jami sanoatdagi ulushi 37,7 %ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino, aroq mahsulotlari va pivoning ulushi 1,7 % (2020- yil yanvar-avgust oylarida 1,8 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qo'qon shahriga to'g'ri kelib, 16,7 %ni, shuningdek, Uchko'prik tumani 17,3 %ni, Farg'ona shahri 11,5 %ni, Marg'ilon shahri 9,1 %ni, Bag'dod tumani 7,8 %ni hamda Toshloq tumani 7,0 %ni, tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (105,3 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich, Oltiariq tumanida (225,2 %), Furqat tumanida (203,7 %), Rishton tumanida (140,6 %), hamda Quvasoy (146,2 %) shahrida qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
2021- yilning yanvar-avgust oylarida

		<i>Hajmi mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi %</i>	<i>O'sish sur'ati %</i>
1	Oltiariq t.	99,6	225,2	1,7
2	Qo'shtepa t.	167,8	71,3	2,8
3	Bag'dod t.	458,0	106,5	7,8
4	Buvayda t.	248,8	112,0	4,2
5	Beshariq t.	95,3	52,6	1,6
6	Quva t.	167,1	110,9	2,8
7	Uchko'prik t.	1 019,6	108,5	17,3
8	Rishton t.	133,2	140,6	2,3
9	So'x t.	43,7	91,2	0,7
10	Toshloq t.	415,7	101,5	7,0
11	O'zbekiston t.	165,3	107,1	2,8
12	Farg'ona t.	72,8	68,0	1,2
13	Dang'ara t.	244,4	106,1	4,1
14	Furqat t.	172,8	203,7	2,9
15	Yozyovon t.	86,1	116,9	1,5
16	Farg'ona sh.	678,8	100,7	11,5
17	Qo'qon sh.	981,9	101,4	16,7
18	Quvasoy sh.	107,2	146,2	1,8
19	Marg'ilon sh.	538,0	112,8	9,1
	Farg'ona viloyati	5891,1	100,0	105,3

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qo'qon shahriga to'g'ri kelib 16,1 %ni, shuningdek Uchko'prik tumani 16,3 %ni, Farg'ona shahri 13,9 %ni hamda Toshloq tumani 10,5 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Oltiariq (308,1 %), Rishton (170,3 %), Furqat (459,9 %) Dang'ara (110,1 %) Buvayda (147,2 %) tumanlarida va Qo'qon (135,9 %) Quvasoy (134,0 %) shaharlarida qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
2021- yilning yanvar-avgust oylarida**

		<i>Hajmi mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi %</i>	<i>O'sish sur'ati %</i>
1	Oltiariq t.	44,2	1,2	308,1
2	Qo'shtepa t.	72,8	2,0	51,8
3	Bag'dod t.	250,0	7,0	108,2
4	Buvayda t.	168,6	4,7	147,2
5	Beshariq t.	53,9	1,5	49,1
6	Quva t.	61,8	1,7	109,9
7	Uchko'prik t.	580,0	16,3	114,6
8	Rishton t.	91,3	2,6	170,3
9	So'x t.	18,3	0,5	149,0
10	Toshloq t.	374,9	10,5	103,3
11	O'zbekiston t.	88,5	2,5	90,1
12	Farg'ona t.	25,1	0,7	44,6
13	Dang'ara t.	159,2	4,5	110,1
14	Furqat t.	85,2	2,4	459,9
15	Yozyovon t.	41,0	1,2	95,8
16	Farg'ona sh.	493,8	13,9	103,5
17	Qo'qon sh.	573,7	16,1	107,2
18	Quvasoy sh.	53,5	1,5	134,0
19	Marg'ilon sh.	329,5	9,2	135,9
	Farg'ona viloyati	3565,4	100,0	109,5

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qo'qon shahriga to'g'ri kelib, 17,5 %ni, shuningdek, Uchko'prik tumanida 18,9 %ni, Bag'dod tumanida esa 8,9 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Oltiariq tumanida (185,4 %), Quvasoy shahrida (160,7%) Furqat tumanida (132,1 %), Yozyovon tumanida (146,1 %) O'zbekiston tumanida (137,0%) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
2021- yilning yanvar-avgust oylarida**

		<i>Hajmi mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi %</i>	<i>O'sish sur'ati %</i>
1	<i>Oltiariq t.</i>	55,4	2,4	185,4
2	<i>Qo'shtepa t.</i>	95,0	4,1	100,3
3	<i>Bag'dod t.</i>	208,0	8,9	104,6
4	<i>Buvayda t.</i>	80,1	3,4	74,4
5	<i>Beshariq t.</i>	41,4	1,8	58,1
6	<i>Quva t.</i>	105,3	4,5	111,6
7	<i>Uchko'prik t.</i>	439,6	18,9	101,4
8	<i>Rishton t.</i>	41,9	1,8	101,9
9	<i>So'x t.</i>	25,4	1,1	71,3
10	<i>Toshloq t.</i>	40,8	1,8	87,4
11	<i>O'zbekiston t.</i>	76,9	3,3	137,0
12	<i>Farg'ona t.</i>	47,7	2,0	94,0
13	<i>Dang'ara t.</i>	85,2	3,7	99,3
14	<i>Furqat t.</i>	87,6	3,8	132,1
15	<i>Yozyovon t.</i>	45,1	1,9	146,1
16	<i>Farg'ona sh.</i>	185,0	7,9	93,9
17	<i>Qo'qon sh.</i>	408,2	17,5	94,1
18	<i>Quvasoy sh.</i>	53,7	2,3	160,7
19	<i>Marg'ilon sh.</i>	208,5	8,9	89,0
	<i>Farg'ona viloyati</i>	<i>2330,7</i>	<i>100,0</i>	<i>99,5</i>

**Farg'ona viloyati hududlari kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari
2021- yilning yanvar-avgust oylarida**



		<i>Hajmi mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi %</i>	<i>FHI %</i>
1	<i>Oltiariq t.</i>	235,3	1,5	117,4
2	<i>Qo'shtepa t.</i>	456,4	2,9	132,0
3	<i>Bag'dod t.</i>	523,7	3,3	103,8
4	<i>Buvayda t.</i>	339,9	2,2	106,3
5	<i>Beshariq t.</i>	384,1	2,5	107,6
6	<i>Quva t.</i>	350,1	2,2	107,0
7	<i>Uchko'prik t.</i>	1 214,1	7,8	105,1
8	<i>Rishton t.</i>	228,3	1,5	117,3
9	<i>So'x t.</i>	59,0	0,4	102,9
10	<i>Toshloq t.</i>	2 056,8	13,2	114,0
11	<i>O'zbekiston t.</i>	505,7	3,2	108,0
12	<i>Farg'ona t.</i>	344,1	2,2	140,4
13	<i>Dang'ara t.</i>	380,5	2,4	109,2
14	<i>Furqat t.</i>	199,0	1,3	144,2
15	<i>Yozyovon t.</i>	88,0	0,6	110,2
16	<i>Farg'ona sh.</i>	4 325,4	27,7	85,8
17	<i>Qo'qon sh.</i>	2 468,4	15,8	106,4
18	<i>Quvasoy sh.</i>	806,0	5,2	99,5
19	<i>Marg'ilon sh.</i>	675,7	4,3	105,2
Farg'ona viloyati		15 640,5	100,0	104,5

**Farg'ona viloyat hududlari kesimida ishlab
chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati %da**


Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining o'sishiga asosiy omil sifatida, Furqat (2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 144,2 %), Farg'ona (140,4 %), Qo'shtepa (132,0 %), Oltiariq (117,4 %), Rishton (117,3 %), Toshloq (114,0 %) tumanlari hamda Quqon (106,4 %) shahri sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada o'sishi bilan izohlashimiz mumkin.

**Sanoat ishlab chiqarish
fizik hajmi indeksi, %da**

**Iste'mol mahsulotlari
ishlab chiqarishda o'sish
sur'ati, %da**



Farg'ona viloyatida jami sanoat

mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, %da


Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng yuqori ulush Farg'ona shahri (Farg'ona viloyati sanoat ishlab chiqarish hajmining 27,7 %i) hamda Qo'qon shahri (15,8 %), Toshloq tumani (13,2 %) Uchko'prik tumani (7,8 %), Quvasoy shahri (5,2 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa So'x (0,4 %), Yozyovon (0,6 %), Furqat (1,3 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Farg'ona (14 672,5 ming so'm), Qo'qon (9 597,1 ming so'm), Quvasoy (8 449,2 ming so'm) shaharlarida va Toshloq (9 974,7 ming so'm) tumanida yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Farg'ona viloyati bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1 536,9 ming so'm bo'lgan holda, Uchko'prik tumani – 4 375,8 ming so'mni, Qo'qon shahri – 3 817,8 ming so'mni, Farg'ona shahri – 2 302,7 ming so'mni, Bag'dod tumani – 2 083,5 ming so'mni, Toshloq tumani 2 015,8 ming so'mni, Furqat tumanida 1 442,6 ming so'mni, Dang'ara tumani – 1 377,4 ming so'mni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari


va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish
2021- yilning yanvar-avgust oylarida, ming so'm

		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
1	<i>Oltiariq t.</i>	1092,5	462,2
2	<i>Qo'shtepa t.</i>	2348,0	863,1
3	<i>Bag'dod t.</i>	2382,5	2083,5
4	<i>Buvayda t.</i>	1464,6	1071,8
5	<i>Beshariq t.</i>	1659,1	411,7
6	<i>Quva t.</i>	1335,2	637,2
7	<i>Uchko'prik t.</i>	5210,6	4375,8
8	<i>Rishton t.</i>	1112,3	649,2
9	<i>So'x t.</i>	742,6	550,9
10	<i>Toshloq t.</i>	9974,7	2015,8
11	<i>O'zbekiston t.</i>	2082,7	680,9
12	<i>Farg'ona t.</i>	1583,4	334,9
13	<i>Dang'ara t.</i>	2145,1	1377,4
14	<i>Furqat t.</i>	1660,8	1442,6
15	<i>Yozyovon t.</i>	781,1	764,3
16	<i>Farg'ona sh.</i>	14672,5	2302,7
17	<i>Qo'qon sh.</i>	9597,1	3817,8
18	<i>Quvasoy sh.</i>	8449,2	1123,8
19	<i>Marg'ilon sh.</i>	2818,9	2244,4
Farg'ona viloyatida		4 077,0	1 536,9

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

2021- yilning yanvar-avgust oylarida, %da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 6 294,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 40,2 %ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Beshariq (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), So'x (100,0 %), Furqat (100,0 %), va Yozyovon (100,0 %) tumanlarida hamda Marg'ilon shahri (100,0 %)da kuzatildi.


Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Farg'ona (15,4 %), Quvasoy (17,8 %), Qo'qon (36,5 %) shaharlarida hamda Toshloq (11,1 %), Farg'ona (23,1 %), Quva (28,8 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi
tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra)**


Bugungi kunda viloyatda 10106 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1512 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 15,0 %i) Qo'qon shahriga, 1132 tasi (11,2 %) Farg'ona shahriga, 1082 tasi (10,7 %) Marg'ilon shahriga, 687 tasi (6,8 %) Uchko'prik tumaniga, 584 tasi (5,8 %) O'zbekiston tumaniga, 580 tasi (5,7 %) Buvayda tumaniga to'g'ri kelmoqda.

**Yangi tashkil etilgan
korxonalar soni, birlikda**

**Faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar soni, birlikda**



Oltiariq t.
Qo'shtepa t.
Bag'dod t.
Buvayda t.
Beshariq t.
Quva t.
Uchko'prik t.
Rishton t.
So'x t.
Toshloq t.
O'zbekiston t.
Farg'ona t.
Dang'ara t.
Furqat t.
Yozyovon t.
Farg'ona sh.
Qo'qon sh.
Quvasoy sh.
Marg'ilon sh.



2021- yilning yanvar-avgust oyida viloyatda 1549 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 153 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 9,9 %) Qo'qon shahrida, 119 tasi (7,7 %) Farg'ona shahrida, 106 tasi (6,8 %) Marg'ilon shahrida, 91 tasi (5,9 %) Uchko'prik tumanida, 109 tasi (7,0 %) Dang'ara tumanida, 87 tasi (5,6 %) Rishton tumanida, 77 tasi (5,0 %) Oltiariq tumanida, hamda 92 tasi (5,9 %) O'zbekiston tumanida tashkil etildi.



Farg'ona viloyat statistika
boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: Sh.Zokirov

Aloqa telefoni: 73 -249-87-19